

Hech bir murojaat e'tiborsiz qolmaydi!



Termiz shahri hokimi O'.To'rayev boshchiligida hokim o'rinbosarlari, Yoshlar ishlari agentligi Termiz shahar bo'limi, mahalla yetakchilari, keng jamoatchilik faollari ishtirokida tashqi mehnat migratsiyasidagi yoshlar bilan masofaviy video muloqot bo'lib o'tdi.

130 dan ortiq mehnat migratsiyasidagi yoshlar ishtirok etgan uchrashuv davomida shahar hokimi yoshlar bilan suhbatlashib, ularning taklif va murojaatlarini tingladi. 20 ga yaqin chet eldagi vatandoshlarimiz murojaat qildi va ushbu murojaatlar yechimi bo'yicha tegishli tashkilot rahbarlariga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.